

Soʻz mulkiga sayohat: “Toshnov” dan “tarnov” gacha

Fitratning “Abulfayzxon” dramasida “toshnov” soʻzini koʻrganimda, soʻz imlosidan ajablandim. Negaki hozirgi jonli tilimizda “tashnov” soʻzi qoʻllanadi. Lekin “Oʻzbek tilining imlo lugʻati” va “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da ushbu soʻz keltirilmagan. Shunda soʻzning tarixi, mazmun-mohiyatini oʻzim yoritishga kirishdim.

“Toshnov” qadimdan uying bir burchagiga oʻrnatiladigan, toshdan yasalgan, hozir beton yoki boshqacha qorishmalardan yasaladigan toʻrtburchak tirikchilik jihozi. Undan hozirgi dush va vannalar boʻlmagan zamonlarda tahorat hamda gʻusl uchun foydalanilgan. Toshnovning oʻrtasida bir necha teshigi boʻlib, u uying burchagidan qazilgan oʻra ustiga oʻrnatilgan. Tahorat va gʻusl chogʻida ishlatilgan suv toshnov markazidagi teshiklardan oʻtib, oʻraga singib ketgan. Yaʼni, toshnov hozirgi kanalizatsiya vazifasini oʻtagan. U ilgari toshdan yasalganligi uchun “toshnov” deb atalgan. Bu ot ikki soʻzdan — “tosh” va “nov” soʻzlaridan tuzilgan. “Tosh” soʻzi tushunarli — u qurilish materiali. “Nov” soʻzi esa suv oqadigan narsa, vositani bildirgan. Demak, “toshnov” degani toshdan yasalgan novni bildiradi.

Toshnovni baʼzi joylarda “abraz” yoki “obrez” deb ham aytadilar. Bu soʻzlarning “obrez” shakli toʻgʻri boʻlib, ushbu forsiy soʻz “ob” — “suv”, “rez” — “toʻk”, “quy” oʻzaklaridan tuzilgan. “Obrez” tahorat va gʻusl payti suv toʻkiladigan, quyiladigan joy maʼnosini bildiradi.

Soʻz tarixi soʻzlarni yetaklab keladi.

Toshnovni baʼzi joylarda “poyga” deb ham aytadilar. Ushbu forsiy soʻzning toʻliq va toʻgʻri shakli “poygoh” boʻlib, oyoq qoʻyiladigan joy maʼnosini bildiradi. Darhaqiqat, toshnov va poygoda oyoq bilan turiladi. Soʻz “poy” — “oyoq” oʻzagi

va “goh” — manzil-makonni bildiruvchi qoʻshimchadan yasalgan.

“Poygoh” soʻzi hozirgi oʻzbek tilida, “toshnov”dan tashqari, “poygak” shaklida ham ishlatiladi va uydagi poyabzal yechiladigan joy yoki uying toʻriga teskari — quyi, pastki qismini ham anglatadi.

Peshka

“Peshka” hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanadigan soʻz boʻlib, uying toʻrini anglatadi. Uygir kirgan mehmonga “peshkaga oʻting”, deb taklif qilinadi. Xonadonning ulugʻlari peshkada va kichiklari esa odo yuzasidan poygada oʻtiradilar. Ushbu forsiy soʻzning asl toʻliq shakli “peshgoh” boʻlib, u “pesh” — old, oldin oʻzagi va “goh” — manzil-makon, joy, oʻrin maʼnolaridagi qoʻshimchadan tashkil topgan. Soʻzning “goh” qismi zamonlar oʻtishi bilan, jonli til talaffuziga moslashib “ka”ga aylangan.

Joy nomlari jumbogʻi

Darvoqe, “toshnov” haqida gap ketganida, “nov” soʻzining maʼnosini bilib oldik. Yaqindan beri tilimizda “Novza” soʻzi faollashdi va uni eshitganda odamlar: “Bu “Novza” nima degani ekan-a?” deb oʻylab qoladigan boʻlishdi. Poytaxtdagi “Hamza” metrobekatining nomi

“Novza” deb atala boshlandi. Chunki ushbu metrobekat “Novza” masjidi yaqinida joylashgan. Metrobekatning yangi nomi shu masjid nomidan olingan. Xoʻsh, “Novza” soʻzining maʼnosi nima?

Ushbu atama “nov” va “zah” oʻzaklaridan yasalgan qoʻshma soʻzdir. “Nov” yuqorida tahlil etilgan “toshnov” soʻzidagi ikkinchi oʻzakning oʻzginasi. Bu oʻrinda u suv oqadigan ariq maʼnosini bildiradi. Umuman, “nov” suv oqadigan ariqqa emas, balki suv oqadigan manzil, makon, jihoz, uskuna maʼnolariga ham ega. Hayotda tabiiy, yaʼni yerni qazib suv oqizish uchun yaratilgan inshootlarga emas, balki yogʻoch, temir, tunuka, sement qorishmasidan yasalgan uskuna va inshootlar ham “nov” tushunchasini ifodalagan. Masalan, loysuvoq tomlarga oʻrnatilgan yogʻoch, tunuka uskunalar nova, tarnov deyilgan. “Tarnov”dagi forscha “tar” — “hoʻl” maʼnosini anglatadi, chunki suv oqqanida u hoʻl boʻlib turadi. “Nov” haqida “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, 2-jild, 46-, 684-betlarida ham qisqacha maʼlumot berilgan.

“Novza” soʻzidagi ikkinchi oʻzak “za” esa “zah” soʻzidan jonli til talaffuzi talablariga koʻra qisqarib qolgan. “Zah” soʻzi namlik va suv maʼnolarini bildiradi. Masjiddning “Novza” deb nomlanishi uning oqar suv inshootiga yaqin joyda qurilganidan dalolat beradi.

Toshkentning “Labzak” dahasi nomi ham asli forsiy izofali birikma — “Labi zah”dan yasalgan boʻlib, u daha katta suv — anhorning labida joylashganini bildiradi.

Voqean, odamlar qadimdan oqar suvga yaqin joylarda makon qurganlar. Chunki suv — hayot manbayi. Jamoat jam boʻladi-

gan masjidlar ham suvga yaqin joyda barpo etilishi maʼqul topilgan.

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani-da Rakat masjidi bor. Shu masjidga yaqin manzillarda Rakat mahallasi va Rakatboshi koʻchasi mavjud. Odamlar Rakat mahallasi va Rakatboshi koʻchasi masjid nomidan olingan, masjid nomi esa namozdagi “rakat” atamasidan olingan boʻlsa kerak, deb taxmin qiladilar. Aslida esa, mazkur nom tarixi boshqacharoq.

Ushbu joy nomlarining bari Rakat arigʻi bilan bogʻliq ekan. Oʻtgan asrda Toshkentdagi anhorning Beshyogʻoch dahasiga yaqin bir qismidan ariq chiqarilgan va bu ariq koʻp mahallalarga tarmoqlanib ketgan. Katta yoshdagi odamlar oʻrtacha kattalikdagi bu ariqda yoshlik paytlari choʻmilishganini, xalq undan suv ichganini eslashadi. Koʻpchilik shu ariqning nomi ham namozdagi “rakat”dan olingan boʻlsa kerak, deb oʻylaydi. Ammo, aniqlanishicha, Rakat arigʻining loyihasini Rakatovskiy degan kishi tuzgan ekan. Oʻsha muhandisning familiyasini qisqartirib, xalq ariqning nomini Rakat deb atay boshlagan. Keyinchalik bu nom rasmiy tus olib, hujjatlarga oʻtib ketgan. Shu ariqning boshlanish joyiga yaqin boʻlgani sababli mustaqillik davrida joy nomlarini mafkuraviy jihatdan yangilash jarayonida Shpilkov koʻchasiga Rakatboshi nomi berildi. Rakat masjidi ham hozirgi joyida emas, dastlabki qurilgan paytida Rakat arigʻining yonginasida — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining roʻparasida joylashgan ekan. Rakat arigʻi hozir ham, ayrim koʻchalardan oʻtgan qismlari koʻmilib ketganiga qaramay, poytaxtning koʻp mahallalari boʻylab sharqirab oqadi. Mana, joy nomlari qanday tarixiy-lisoniy sir-sinoatga ega ekan.

Nusratullo JUMAXOʻJA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

“Dunyoning ishlari” qissasi asosida testlar

“Maʼrifat” gazetasida abituriyentlar va kitobxonlar uchun darslikdagi mavjud asarlar asosida tuzilgan test savollaridan ham namunalar berib borilsa va keyingi sonida asarning keyingi boblaridan test savollari hamda oldingi testlarning javoblari berilsa, oʻquvchilar gazetasining har bir sonini intiqlik bilan kutardi, deb oʻylayman. Oʻzim obuna boʻlganimdan xursandman. Oʻquvchilarimning ham gazetaga qiziqishi ortib bormoqda. Maktabimizdagi 11-sinf oʻquvchilari agar asarlardan va 3 ta majburiy fandan testlar doimiy berib borilsa, har bir sinf oʻquvchilari gazetaga jamoa boʻlib obuna boʻlishlarini aytishdi. Men Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi asosida oʻzim tuzgan test savollarini hukmingizga havola qilaman.

1. “Farrosh mehnatini hurmat qiling” degan yozuvni eslab mulzam boʻlgan va oyisi ham farrosh boʻlganligini aytib, boshidan kechirganlarini hikoya qilgan qahramon qissaning qaysi bobida keltirilgan?

- A) “Qanoat” hikoyasida
B) “Bozor” hikoyasida
C) “Havas” hikoyasida
D) “Ikki afsona” hikoyasida

2. “Gʻalati gapirardi. “z” ni aytolmaydi, “dz”deydi, “s” deyolmaydi, allaqanday “ts” qilib aytadi. Shuncha yildan beri bironta toʻyda choynak darz ketmagan, biron mehmon choy-siz qolmagan”. Ushbu jumla “Dunyoning ishlari” asarining qaysi hikoyasida keltirilgan?

- A) “Oltin baldoq”

- B) “Mahallaning “shayxi”
C) “Sovchilar”
D) “Surat”

3. “... koʻp tugʻgan. Hammasi chillasi chiqmasdan oʻlib ketgan. Ammo Oltmishvoy boshqacha yigit-da! Bittayam kasal boʻlmagan. Oltmishvoy Ermon buva oltmishga kirganda tugʻilgan ekan”. Ushbu hikoyada keltirilgan Oltmishvoyning onasining ismi?

- A) Hoji buvi
B) Habiba buvi
C) Halima buvi
D) Roqiya buvi

4. Bosar-tusarini bilolmay qolgan, qoʻsha-qoʻsha imoratlar solib, oxiri lop etib qamalib ketgan Toʻxtavoy qaysi hikoya qahramoni?

- A) “Imon”
B) “Xiyonat”
C) “Mening Acha xolam”
D) “Eng ogʻir gunoh”

5. “Shifokorlarga ham qiyin. Oʻn olti yil eshakdek oʻqib, 140 soʻm oladi. Na kechasi tinchlik bor, na kunduzi. Oʻsha 140 soʻm savil qolgurni savdo xodimi bir kunda topadi”. Ushbu jumla qaysi hikoyada keltirilgan?

- A) “Imon”
B) “Xiyonat”
C) “Mening Acha xolam”
D) “Eng ogʻir gunoh”

6. “Bu odamni bolaligimdan taniyman. Oʻshandan buyon uning bittayam tuki oʻzgarmagan, desam lof boʻlmaydi. U har kuni ertalab bir vaqtda darvozamiz oldidan mahalla guzari tomon

oʻtib ketadi. Qishda kuya yegan telpak, oyogʻida mahsi-kalish kiyib yuradi. Qoʻlidagi xoʻjalik sumkasi ham kamida 20 yil sidqidildan xizmat qilgan”. Ushbu maʼlumot qaysi qahramon haqida?

- A) Ermon buva
B) Naim buva
C) Oltmishvoy
D) Toʻxtavoy

7. Tili bilan teng aylanadigan, Xizmatiga shaylanadigan, Toʻydan quruq

qaytmaydigan,

Soʻzlari moyday,

yuzlari oyday,

Qaynonasiga salo-o-m! Ushbu kelin salom qaysi hikoyadan olingan?

- A) “Oltin baldoq”
B) “Havas”
C) “Sovchilar”
D) “Surat”

8. “Esingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men alaning ohangiga mast boʻlib uxlab qolar edim”. Ushbu jumla qaysi hikoyada uchraydi?

- A) “Oq marmar, qora marmar ...”
B) “Alla”
C) “Iltijo”
D) “Haqqush”

9. “— Nilu, oʻlgur, nima qilding? Ha, qiz boʻlmay ajalni oldida

ket! Shishani yogʻi bilan berib yuboribsan-ku.

— Hoy, Alish! Nima hunar koʻrsatding? Hushtak chalmay yergina yutgur, adangni aroqini toʻkib tashlab butilkasini beribsan-ku!” Parcha qaysi hikoyadan olingan?

- A) “Kaltakesakning dumi”
B) “Xiyonat”
C) “Usta”
D) “Eng ogʻir gunoh”

10. “Har qanday dardning eng yaxshi davosi vaqt deydi. Bilmadim, boshqalarda shunday boʻlsa bordir. Menda... Baʼzan hammasini unutganday boʻlaman-u, biron narsadan siqilsam, yana qaytadan boshlanadi. Kechasi uyqu oʻchganicha qorongʻi shiftga tikilib yotaveraman, yotaveraman...”. Jumla qaysi hikoyadan olingan?

- A) “Oltin baldoq”
B) “Havas”
C) “Sovchilar”
D) “Surat”

Rahima QIYOMOVA,
Zarafshon shahridagi
2-maktabning ona tili va
adabiyot fani oʻqituvchisi

Javoblar: 1-D, 2-B, 3-B,
4-C, 5-A, 6-B, 7-A, 8-C, 9-A,
10-B

